Mazkur metodlar yordamida temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar kompleks ravishda o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Temir yo'l transporti tizimining ekologik barqarorligini ta'minlash transport infratuzilmasining samaradorligi hamda energiya resurslaridan foydalanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Transport tizimi faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transporti boshqa transport turlariga nisbatan ekologik jihatdan samaraliroq bo'lsa-da, uning faoliyati ham energiya iste'moli va atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda transport sektorida karbon chiqindilarining muhim qismi transport vositalari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, temir yo'l transportining ulushi boshqa transport turlariga nisbatan past hisoblanadi. Shu bilan birga, temir yo'l transportida foydalanilayotgan texnik parkning eskirishi hamda dizel lokomotivlar ulushining yuqoriligi energiya samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston transport tizimida ham temir yo'l transporti muhim infratuzilma tarmog'i hisoblanadi. So'nggi yillarda temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va elektrlashtirilgan temir yo'l liniyalarini kengaytirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon transport tizimining ekologik barqarorligini ta'minlash hamda energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Transport tizimini tahlil qilish natijasida ekologik barqarorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar aniqlandi. Temir yo'l transportida ekologik barqarorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Temir yo'l transportida ekologik barqarorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar¹

Omil	Mazmuni	Ta'sir darajasi
Energiya samaradorligi	Lokomotivlarning energiya sarfi	Yuqori
Elektrlashtirish darajasi	Elektr temir yo'l liniyalari ulushi	Yuqori
Texnik park holati	Lokomotiv va vagonlarning eskirishi	O'rta
Ekologik monitoring	Atrof-muhit monitoring tizimi	Yuqori
Yashil moliyalashtirish	Ekologik investitsiyalar hajmi	O'rta

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlashda energiya samaradorligini oshirish hamda transport infratuzilmasini elektrlashtirish eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida temir yo'l transportining ekologik samaradorligini baholash uchun integrallashgan baholash modeli taklif etildi. Mazkur model quyidagi asosiy ko'rsatkichlarga tayanadi:

- energiya samaradorligi;
- chiqindilarni kamaytirish darajasi;
- ekologik innovatsiyalarni joriy etish darajasi.

Zamonaviy global rivojlanish sharoitida "yashil" texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni joriy etish nafaqat iqlim muammolariga javob chorasi, balki transport sohasining barqarorligi, samaradorligi hamda xalqaro standartlarga moslashuvi uchun ham muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston temir yo'l transportida ushbu yo'nalishdagi islohotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi, biroq ularning amaliy ijrosida ayrim muammolar

1 O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolarni chuqur tahlil qilish orqali ularni keltirib chiqarayotgan asosiy omillarni aniqlash va tizimli yondashuv asosida hal etish zarurligi yaqqol namoyon bo'ladi (2-jadval).

2-jadval. Temir yo'l transportida "yashil" texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq asosiy muammolar²

№	Muammo	Iqtisodiy ta'siri	Ekologik zarari	Strategik oqibati
1.	Eski dizelli lokomotivlar	Yoqilg'i xarajatlari yuqori, ta'mirlash sikli qisqa	CO ₂ , NO _x va PM2.5 chiqindilari miqdori ortadi	Iqlim o'zgarishiga salbiy ta'sir, xalqaro ekologik reytinglarda pasayish
2.	Elektrlashtirilmagan temir yo'l tarmoqlari	Energiya uchun import xarajatlari ortadi, ekspluatatsion xarajatlar 40% gacha yuqori	Atmosfera ifloslanishi ortadi	Umumiy karbon izi oshishi va aholi salomatligiga salbiy ta'sir
3.	Ekopark texnologiyalarining yetishmasligi	Innovatsion samaradorlikdan foydalanish darajasi past	Eskirgan texnikadan foydalanish tufayli havo sifati yomonlashadi	Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish qiyinlashadi
4.	Moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarning yetarli emasligi	Investitsiyalar hajmi kamayadi, tashqi investorlar jalb etilishi cheklanadi	Energiya tejamkor loyihalar amalga oshmaydi	Ekologik transformatsiya jarayonida ortda qolish xavfi
5.	Loyihalarda ekologik baholash amaliyotining yetarli emasligi	Resurslar noto'g'ri taqsimlanishi mumkin	Tuproq va suv resurslari ifloslanishi xavfi	Ekologik xavflarni oldindan prognoz qilish imkoniyati cheklanadi
6.	Kadrlar salohiyatining yetarli emasligi	Yangi texnologiyalarni joriy etishda kechikish	Noto'g'ri ekspluatatsiya natijasida energiya isrofi va chiqindilar ortishi	"Yashil" islohotlarning samaradorligi pasayadi
7.	Xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaslik	Tranzit va eksport imkoniyatlari qisqaradi	Ekologik ifloslanish darajasi yuqori hududlar paydo bo'lishi mumkin	Xalqaro majburiyatlarni bajarish qiyinlashadi
8.	Qonunchilikda "yashil" mexanizmlar integratsiyasining sustligi	"Yashil" loyihalarni moliyalashtirish cheklanadi	Yuqori karbonli texnologiyalar saqlanib qoladi	"Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni sekinlashadi

Birinchidan, energiya sarfi va uglerod chiqindilarining yuqoriligi muammosi mavjud. Mazkur muammo, avvalo, texnik parkning, ayniqsa lokomotiv va vagonlar tarkibining, katta qismi dizel yoqilg'isiga asoslangan transport vositalaridan iborat ekanligi bilan bog'liq. Hozirda foydalanilayotgan dizelli lokomotivlarning aksariyati 1980–1990-yillarda ishlab chiqarilgan bo'lib, ularda energiya samaradorligi past, ishlatilgan yoqilg'i miqdoriga nisbatan chiqindi darajasi yuqori hisoblanadi. Bunday texnikadan foydalanish natijasida atmosferaga chiqarilayotgan CO₂, NO_x va PM2.5 kabi ifloslantiruvchi moddalar miqdori yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Ushbu holat texnik parkni yangilash bo'yicha investitsion strategiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan ham bog'liqdir.

Ikkinchidan, temir yo'l infratuzilmasining energiya manbalariga nisbatan asimmetrik rivojlanishi kuzatilmoqda. Ayrim asosiy yo'nalishlarda elektrlashtirish ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, tarmoqning muhim qismi hanuzgacha dizel lokomotivlari orqali harakatlanishga asoslangan. Elektrlashtirish jarayonining sust kechishi nafaqat texnik, balki iqtisodiy va tashkiliy omillar bilan ham izohlanadi. Avvalo, infratuzilmani elektrlashtirish bo'yicha davlat dasturlarida moliyalashtirish hajmining yetarli emasligi hamda soha uchun ajratiladigan investitsiyalarning umumiy byudjetdagi ulushi nisbatan pastligi ushbu jarayonni sekinlashtirmoqda. Shu bilan birga, infratuzilmani modernizatsiya qilish rejalarida "yashil" tamoyillarga yetarli e'tibor qaratilmagani, ya'ni energiyaning qayta tiklanuvchi manbalaridan foydalanish yoki "smart-energetik tarmoqlar" konsepsiyasining to'liq hisobga olinmaganligi ham muammoning institutsional sabablaridan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirish bilan bog'liq to'siqlar tizimli xarakterga ega. Hozirgi vaqtda temir yo'l transporti sohasida "yashil" loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus fondlar,

² O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

subsidia mexanizmlari yoki “yashil” obligatsiyalar chiqarish amaliyoti yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Buning asosiy sabablaridan biri – milliy moliya bozorida “yashil moliyalashtirish” konsepsiyasining nisbatan yangi ekanligi va uning me’oriy-huquqiy bazasi hali to’liq shakllanmaganligidir. Shu bilan birga, loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda ekologik ko’rsatkichlarning, jumladan NPV va IRR tahlillarining yetarli darajada qo’llanilmasligi ham moliyalashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

To’rtinchidan, institutsional va strategik hujjatlarda “yashil” rivojlanish tamoyillarining temir yo’l sohasiga integratsiyasi cheklangan darajada kuzatiladi. O‘zbekiston Parij kelishuviga qo’shilgan bo’lsa-da, temir yo’l transportini rivojlantirish strategiyalarida Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) ning aniq indikatorlari yetarli darajada aks ettirilmagan. Ko’plab hollarda ekologik tamoyillar umumiy deklarativ xarakterga ega bo’lib, ular aniq amaliy mexanizmlar va mezonlar bilan mustahkamlanmagan. Shu bilan birga, mazkur yo’nalishda malakali mutaxassislar va kadrlar salohiyatining yetishmasligi ham amaliy tadbirlarning sust amalga oshirilishiga olib kelmoqda.

“Yashil” texnologiyalarni joriy etish jarayonida nafaqat texnik omillar, balki tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni to’g’ri shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu yo’nalishdagi islohotlar faqat texnologik yangilanish bilan cheklanmaydi, balki ularni boshqaruv tizimi, moliyalashtirish mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda institutsional muhit bilan uyg’un holda amalga oshirishni talab etadi. Shu bois, mazkur jarayonni tizimli va barqaror tarzda boshqarish uchun kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizm modelini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Birinchi navbatda, ushbu mexanizmga ishtirok etuvchi subyektlar aniq belgilanishi lozim. Bu jarayonda davlat strategik yo’nalishlarni belgilovchi markaziy institut sifatida milliy “yashil transport strategiyasi” ni ishlab chiqishi va uni normativ-huquqiy hujjatlar orqali institutsionallashtirishi zarur. Shu bilan birga, “O‘zbekiston temir yo’llari” AJ sohadagi asosiy operator sifatida ekologik innovatsiyalar va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishda yetakchi rolni bajaradi. Xususiy sektor esa “yashil” investitsiyalar, texnologiya transferi va bilim almashinuvi orqali jarayonning iqtisodiy samaradorligini oshirishga hissa qo’shadi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) – loyihalarni moliyalashtirish, ESG baholash tizimlarini joriy etish hamda karbon tahlil metodologiyalarini qo’llashda muhim rol o’ynaydi.

Mazkur mexanizmga iqtisodiy instrumentlarni joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ekologik subsidiyalar “yashil” lokomotivlar, energiya tejavchi stansiyalar yoki qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo’llashni rag’batlantirish maqsadida davlat tomonidan moliyaviy qo’llab-quvvatlash shaklida amalga oshirilishi mumkin. “Yashil” obligatsiyalar esa transport infratuzilmasi loyihalarini bozor tamoyillari asosida moliyalashtirish imkonini beradi. Bu orqali nafaqat investitsiyalar hajmi oshadi, balki mamlakatning xalqaro ekologik reytinglardagi mavqei ham mustahkamlanadi. Shuningdek, karbon kvotalari savdosi ifloslantiruvchi faoliyatni iqtisodiy jihatdan tartibga soluvchi samarali mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tashkiliy vositalar orasida milliy “yashil” transport strategiyasi, texnologik standartlarni joriy etish hamda bilim va innovatsiyalar transferi markazlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunday markazlar ekologik menejment, ESG hisobotlari, energiya menejmenti hamda loyihalarni baholash yo’nalishlarida mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan bo’lishi zarur. O‘zbekiston sharoitida ushbu sohada kadrlar salohiyati hali yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Shu sababli bilim transferi va malaka oshirish dasturlari mexanizmning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mazkur mexanizmni samarali boshqarish va baholash uchun uni ichki va tashqi bloklar asosida modellashtirish maqsadga muvofiq.

Ichki bloklar:

- texnologik yangilanish (energiya tejavchi texnika, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari);
- kadrlar tayyorlash (ekologik va ESG kompetensiyalariga ega mutaxassislar);
- huquqiy-institutsional islohotlar (yangi normativ-huquqiy hujjatlar va standartlar).

Tashqi muhit bloklari:

- investitsiya muhiti (shaffof va barqaror moliyalashtirish tizimi);
- xalqaro ekologik reytinglar (SDG, Global Green Index va boshqalar);
- texnologik transfer va xalqaro hamkorlik (tajriba almashinuvi va qo’shma loyihalar).

Mazkur mexanizm orqali temir yo’l transporti sohasida “yashil” rivojlanish deklarativ darajada emas, balki tizimli, rejalashtirilgan va iqtisodiy jihatdan asoslangan shaklda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bunday yondashuv transport tizimining barqaror rivojlanishini, raqobatbardoshligini hamda ekologik xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Hozirgi bosqichda ushbu modelni joriy etish nafaqat soha ichidagi islohotlarning muhim yo’nalishi, balki milliy iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanish strategiyasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Temir yo’l transportining ekologik barqarorlik darajasi quyidagi formula orqali baholanadi:



$$E_s = \frac{E_e + E_r + E_i}{3}$$

Bu yerda:

E_s – ekologik barqarorlik indeksi;

E_e – energiya samaradorligi ko'rsatkichi;

E_r – chiqindilarni kamaytirish darajasi;

E_i – ekologik innovatsiyalar darajasi.

Temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash va ularni tizimli ravishda guruhlash muhim ahamiyatga ega. Ekologik barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda kutilayotgan natijalar o'zaro uzviy bog'liqdir.

Transport infratuzilmasining ekologik modernizatsiyasi, energiya samarador texnologiyalarni joriy etish hamda yashil moliyalashtirish instrumentlarini qo'llash bo'yicha xalqaro tajriba tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida temir yo'l liniyalarini elektrlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Xususan, temir yo'l liniyalarini elektrlashtirish dizel yoqilg'isidan foydalanishni kamaytiradi va atmosferaga chiqarilayotgan karbon chiqindilarini sezilarli darajada qisqartiradi. Shu bilan birga, transport infratuzilmasida IoT va sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish energiya sarfini optimallashtirish hamda transport tizimining umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Yashil moliyalashtirish instrumentlari esa transport infratuzilmasini ekologik modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, yashil obligatsiyalar, ekologik grantlar hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratiladigan kreditlar transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini tizimli ravishda aks ettirish transport infratuzilmasining ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval. Temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni oshirish yo'nalishlari³

Yo'nalish	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
Elektrlashtirish	Elektr lokomotivlar ulushini oshirish	CO ₂ chiqindilari kamayadi
Raqamli boshqaruv	IoT va AI texnologiyalarini joriy etish	Energiya sarfi optimallashtiriladi
Yashil moliyalashtirish	Yashil obligatsiyalar va grantlar	Ekologik investitsiyalar hajmi ortadi
Ekologik monitoring	Avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari	Ekologik nazorat darajasi oshadi

Temir yo'l transportining ekologik barqarorligini oshirish transport infratuzilmasining texnologik modernizatsiyasi hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Jadvalda temir yo'l transportining ekologik barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda kutilayotgan natijalar tizimli ravishda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri transport infratuzilmasini elektrlashtirish hisoblanadi. Elektr lokomotivlardan foydalanish dizel yoqilg'isiga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi hamda atmosferaga chiqarilayotgan karbon chiqindilarining sezilarli darajada qisqarishiga olib keladi. Natijada transport tizimining ekologik samaradorligi oshadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish transport infratuzilmasida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish bilan bog'liqdir. IoT va sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan monitoring tizimlari transport vositalarining energiya sarfini nazorat qilish hamda transport jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa energiya resurslaridan samarali foydalanish va transport infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlashda yashil moliyalashtirish mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Yashil obligatsiyalar, grantlar va ekologik investitsiyalar transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda energiya samarador texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo'lgan moliyaviy

3 Muallif ishlanmasi.

resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Bu esa transport tizimining ekologik modernizatsiya jarayonini jadallashtiradi.


Shuningdek, transport infratuzilmasida ekologik monitoring tizimini joriy etish ekologik nazoratni kuchaytirish va transport faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini baholash imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari yordamida atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning miqdori, energiya iste'moli hamda transport infratuzilmasining ekologik holatini muntazam nazorat qilish mumkin.

Shunday qilib, jadvalda keltirilgan yo'nalishlar temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini aks ettiradi. Ushbu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi transport infratuzilmasining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda temir yo'l transportining iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda temir yo'l transportini ekologik jihatdan samarali rivojlantirish faqat mavjud muammolarni bartaraf etish bilan cheklanib qolmasligi, balki ilg'or innovatsion yondashuvlar orqali strategik yangilanishga yo'naltirilishi zarur. Buning uchun "yashil" texnologiyalar, ESG standartlari hamda klasterlashgan rivojlanish modellari asosida milliy temir yo'l tizimini transformatsiya qilish bo'yicha aniq va samarali takliflar ishlab chiqilishi lozim.

Shunday innovatsion yondashuvlardan biri temir yo'l tarmoqlarini "yashil klaster" modeli asosida qayta tashkil etishdir. Ushbu model doirasida transport tarmoqlari atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradigan texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, logistika markazlari hamda energiya tejovchi infratuzilma bilan uyg'un holda shakllantiriladi. Ya'ni transport tarmog'i alohida infratuzilma obyektigina bo'lib qolmay, balki innovatsiyalar, ta'lim, xizmatlar va ishlab chiqarish elementlarini o'z ichiga olgan geoiqtisodiy klasterga aylantiriladi.

Mahalliy sharoitlarda ushbu yondashuvni, avvalo, Toshkent–Sirdaryo, Navoiy–Buxoro hamda Andijon–Farg'ona temir yo'l yo'nalishlarida joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday klasterlashuv natijasida energiya sarfini 15–20% ga, harakat tarkibining ekspluatatsiya xarajatlarini esa 10% gacha kamaytirish mumkinligi prognoz qilinadi (1-rasm).



1-rasm. Temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi⁴

Mazkur model transport tizimining ekologik samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Model uchta asosiy komponentdan iborat: tashkiliy, iqtisodiy va texnologik mexanizmlar. Ushbu mexanizmlar o'zaro integratsiyalashgan holda transport infratuzilmasining ekologik xavfsizligini ta'minlash hamda energiya resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Natijada temir yo'l transportining ekologik va iqtisodiy samaradorligi oshadi.

4 Muallif ishlanmasi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transporti tizimida ekologik barqarorlikni ta'minlash transport infratuzilmasining texnologik modernizatsiyasi, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik innovatsiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Transport tizimi iqtisodiyotning strategik infratuzilma tarmoqlaridan biri hisoblanib, uning barqaror faoliyati nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlashga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida energiya samaradorligi, transport infratuzilmasining elektrlashtirish darajasi, texnik parkning modernizatsiyasi hamda ekologik monitoring tizimining rivojlanish darajasi aniqlangan. Ushbu omillar transport tizimining ekologik samaradorligini oshirish hamda zararli chiqindilarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlash transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, energiya samarador texnologiyalarni joriy etish hamda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatdi. Ayniqsa, temir yo'l liniyalarini elektrlashtirish dizel yoqilg'isiga bo'lgan qaramlikni kamaytirish hamda atmosferaga chiqarilayotgan karbon chiqindilarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Shuningdek, transport infratuzilmasida raqamli texnologiyalarni joriy etish energiya resurslaridan samarali foydalanish va transport jarayonlarini optimallashtirish imkonini yaratadi. IoT va sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan monitoring tizimlari transport infratuzilmasining ekologik holatini nazorat qilish hamda energiya sarfini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Temir yo'l transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilish va elektrlashtirish darajasini oshirish orqali transport tizimining ekologik samaradorligini yaxshilash zarur.
2. Energiya samarador lokomotivlar va zamonaviy transport texnologiyalarini joriy etish orqali temir yo'l transportida energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.
3. Transport infratuzilmasida ekologik monitoring tizimini joriy etish hamda avtomatlashtirilgan monitoring platformalarini rivojlantirish orqali transport tizimining ekologik holatini muntazam nazorat qilish zarur.
4. Temir yo'l transportida ekologik modernizatsiya jarayonlarini moliyalashtirish uchun yashil obligatsiyalar, ekologik grantlar hamda xalqaro moliya institutlari kreditlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.
5. Transport infratuzilmasida ekologik innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirish hamda energiya samarador texnologiyalarni qo'llash orqali temir yo'l transportining ekologik xavfsizligini ta'minlash zarur.

Shunday qilib, temir yo'l transportida ekologik barqarorlikni ta'minlash transport tizimini kompleks modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik innovatsiyalarni joriy etishga asoslangan tizimli yondashuvni talab qiladi. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi transport infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda temir yo'l transportining iqtisodiy samaradorligini hamda xalqaro transport bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. – <https://lex.uz>
2. Rodrigue, J.-P. (2020). *The Geography of Transport Systems* (5th ed.). Routledge.
3. Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment–competitiveness relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97–118.
4. Tereshina, N. P. (2018). *Ekonomika zheleznodorozhnogo transporta*. Moscow: Transport.
5. Gudkov, V. A. (2016). *Ekonomika transporta*. Moscow: Transport.
6. Xodiyev, B. Y. (2020). *Milliy iqtisodiyot asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.
7. G'ulomov, S. S. (2019). *Innovatsion iqtisodiyot*. Toshkent: Iqtisodiyot.
8. Fayzullayev, J. S. (2019). Improvement of economic efficiency of development of railway transport. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)*, 9(2).
9. Amirov, L. F., Fayzullaev, J. S., Rahimov, H. S., & Shayusupova, N. T. (2021). EMM of effective management of the integrated transportation and logistics system. *E3S Web of Conferences*, 244, 08022. EDP Sciences.
10. Rahimov, H. S. (2020). Improving the economic activity of transport infrastructure. *Archive of Conferences*, 10(1).

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

